

RUHIY TAZIYHGA UCHRAGAN BOLALARNI O'ZIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH

Kamilova Durdona Rustamovna

Toshkent tumani "Inson ishtimoiy

xizmatlar sarqasi "psixoligi

Annotatsiya: ushbu maqolada ruhiy tazyiqqa uchragan bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish usullari yoritilgan. Bolalarning ruhiy salomatligini tiklash uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, ijobiy fikrlashni shakllantirish, kichik yutuqlar orqali ularni rag'batlantirish hamda ijodiy va jismoniy faoliyatga jalb qilish muhim ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, mehr-muhabbat va sabr-toqat bilan yondashish bolaning o'zini qadrlashiga va o'z kuchiga ishonishiga yordam berishi qayd etilgan. Ushbu maqola ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, intellekt, tafakkur, konstitutsional, somatogen, psixogen, serebral, korrektsion ta'lif, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

INCREASING THE CHILDREN WHO HAVE BEEN ENCONTRERED TO MENTALLY

Kamilova Durdona Rustamovna

Psychology "Sarl of Human Human Services "

Annotation: This article illuminates ways to increase the self-confidence of children who have been spiritually pressed. It is emphasized that creating a supportive environment for restoring children's mental health, forming positive thinking,

encouraging them through small achievements, and involve them in creative and physical activities. It is also noted that love and patience can help the child's appreciation and trust in his own power. This article can be useful for parents, teachers and psychologists.

Keywords: Mental development, infiltrating children, intellect, intellect, sedative, psychogen, corecene, correction education, innovative pedagogical technologies.

УВЛЕЧЕНИЕ ДЕТЕЙ С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЛИСЬ УМСТВЕННО

Камилова Дурдона Рустаамовна

Психология "Сарл человеческих служб человеческих услуг "

Аннотация: эта статья освещает способы повышения уверенности в себе детей, которые духовно дали. Подчеркивается, что создание поддерживающей среды для восстановления психического здоровья детей, формирования позитивного мышления, поощрения их с помощью небольших достижений и вовлекать их в творческие и физические упражнения. Также отмечается, что любовь и терпение могут помочь ребенку оценить и доверять его собственной власти. Эта статья может быть полезна для родителей, учителей и психологов.

Ключевые слова: психическое развитие, проникновение детей, интеллект, интеллект, седативный, психоген, коревен, коррекционное образование, инновационные педагогические технологии.

KIRISH

Ruhiy tazyiqga uchragan bolalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish juda muhim masala hisoblanadi. Ruhiy tazyiq bolaning emotional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday bolalar o‘zlarini xavfsiz va qadrli his qilishlari uchun atrofdagi kattalar – ota-onalar, o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur.O‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch inson

shaxsiyatining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va o‘zini erkin ifoda eta olishi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bolalarni psixologik tazyiq ta’siridan himoya qilish, ularning o‘z qimmatini anglashiga yordam berish va ijobiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Mazkur maqolada ruhiy tazyiqqa uchragan bolalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish usullari, samarali yondashuvlar va amaliy tavsiyalar haqida so‘z yuritiladi.

Ta’lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqat, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bunday bolaga bilim berishda tarbiyachi uning o‘ziga xos individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Maxsus ta’limni mamlakatimizda joriy qilishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ya’ni ijtimoiy, siyosiy, madaniy rivojlanishni, milliy qadriyatlarimizni e’tiborga olishni taqozo etadi. Jamiyatimizning bir qismi bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, maxsus ta’lim jarayoniga yangi innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ulardagi nuqsonlarni ilk yoshidan aniqlash va bartaraf etish, ijtimoiy jamiyatga to‘laqonli moslashtirish ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismi sanaladi. Olimlarning o‘tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko‘rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o‘zlashtirish jihatidan olganda sog‘lom va yengil darajadagi aqli zaif bolalar o‘rtasida oraliq o‘rinda turadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqli zaif, yengil darajadagi aqli zaif bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va bularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning o‘zlashtirish qobiliyati sog‘lom tengqurlariga nisbatan past bo‘lsa-da, yengil darajadagi aqli zaif bolalarnikidan ancha durust bo‘lganligi uchun bunday bolalar ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanadilar. Ruhiy rivojlanishi past bo‘lgan bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashishida tarbiyachilarning

o‘rni muhimdir. Tarbiyachilar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maxsus sharoitda ta’lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o‘z vaqtida aniqlab, boshqa bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan inklyuziv sharoit me’yorda rivojlangan, sog‘lom tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasalarda davolab, himoya etish va ruhiy faoliyatni rostlashni ko‘zlab alohida ta’lim-tarbiya ishlari olib boriladi. O‘z vaqtida va to‘g‘ri tashkil etilgan yordam tufayli ushbu toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar keyinchalik yaxshi rivojlanib ketib, muvaffaqiyatlari ta’lim oladilar. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolani oilada to‘g‘ri, korreksion yo‘nalishda tarbiyalashni ota-onalarga o‘rgatish maxsus tashkilotchilar zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola maxsus tashkilotlarda tahsil olar ekan, o‘z-o‘zidan oila va tashkilot hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi. Bu hamkorlik ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini oshirishda qulay imkoniyatdir.

Ruhiy tazyiqqa uchragan bolalarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish

Ruhiy tazyiqqa uchragan bolalar ko‘pincha o‘ziga ishonchsizlik, qo‘rquv, yolg‘izlanish va tushkunlik hissini boshdan kechiradi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lishi mumkin, biroq bu jarayonda to‘g‘ri yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz bolalarning ruhiy salomatligini tiklash va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Muhimi, bolaga mehr va tushunish bilan yondashish, uning his-tuyg‘ularini qadrlash va qabul qilishdir. Shu bilan birga, quyidagi usullar ham bolaga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi:

Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish

Ijobiy fikrlashni shakllantirish



Bolaga kichik g‘alabalarga erishish imkonini berish

San’at, sport va ijodiy faoliyat orqali o‘zini ifoda etish imkoniyatini berish

Sabr va hurmat asosida muloqot qilish

Ushbu yondashuvlar bolaning hayotga bo‘lgan ishonchini qayta tiklashga, o‘zini qadrlashga va mustahkam ruhiy holatga ega bo‘lishiga yordam beradi.

Ushbu mavzuni xulosa kilib aytganda ruhiy tazyiqqa uchragan bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish sabr-toqat, mehr-muhabbat va doimiy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Ularni tushunish, ijobiy fikrlashni shakllantirish, kichik yutuqlar orqali o‘z qobiliyatlariga ishonchini mustahkamlash va ijodiy hamda jismoniy faoliyatga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Eng asosiysi, bola o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qilishi kerak. Shundagina u ruhiy jarohatlardan xalos bo‘lib, o‘ziga bo‘lgan ishonchini qayta tiklay oladi. Har bir bola o‘ziga xos va qadrli ekanligini his etishi uchun uni doim qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: 2008
2. G’oziyev E. V. Umumiy psixologiya. – T.: 2010
3. Rahmanova V. S. Defektologiya asoslari. – T.: 2017
4. Shomaxmudova R. Sh. Inklyuziv ta’lim. – T.: 2011

